

**XORAZM VILOYATINING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING HOZIRGI
HOLATI VA TENDENSIYALARINI STATISTIK BAHOLASH**

O'tamuratov Asfandiyor Rustamovich

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi boshlig'i*

Tillayev Bekzod Otaboyevich

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi bolim boshlig'i*

Babadjanov Zokir Kadamovich

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi bolim boshlig'i*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tarmoqlar kesimida dinamikasi statistik tahlili, iqtisodiyot sohalarining viloyat YAHMga ta'siri, ularni turli statistik usullardan foydalanib, iqtisodiy-statistik tahlilini amalga oshirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga erishishda asosiy ustuvorliklarini aniqlash hamda aniqlangan o'zgarish tendensiyalari asosida istiqbolda rivojlanish strategiyasi asosiy yo'nalishlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, tendensiyalar, iqtisodiy-statistik tahlil, ma'lumot manbalari, dinamika, hududlar iqtisodiyoti, rivojlanish strategiyasi, statistik baholash, omillar, mezonlar, ko'rsatkichlar, statistika usullari, uslubiy asoslar, ustuvor yo'nalishlar, barqaror rivojlanish.*

KIRISH

Bugungi kunda milliy taraqqiyotning mantiqiy bosqichi – mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish davri izchil ravishda davom etmoqda. O'zbekiston jahon xaritasidan mustaqil davlat sifatida joy olgandan keyingi tarixan qisqa davr ichida demokratik jamiyat hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida ahamiyatli ishlar amalga oshirildi va salmoqli natijalar qo'lga kiritildi. Bunda mamlakatimiz rahbari tomonidan rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Mamlakatning izchil iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan undagi hududlarning rivojlanish suratlari va darajasiga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston hududlarining mutanosib barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi – makroiqtisodiy barqarorlikning, milliy iqtisodiyot tadrijiy rivojlanishining asosidir. Bu barcha hududlar manfaatlariga mos keladigan iqtisodiyotning samarali tuzilmasi shakllantirilishini taqozo etadi. Hududiy rivojlanishning nazariy jihatlarini chuqurroq o'rganish asosida erkinlashtirish sharoitida mamlakatimiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi amalda ro'yobga chiqarilishi zarurligini belgilab beradi.

Respublikamizda oxirgi yillarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini izchil amalga oshirilishi natijasida iqtisodiy o'sishning yuqori, barqaror va muvozanatlashgan sur'atlari va makroiqtisodiy barqarorlik tendensiyalari mustahkamlanib, aholi turmush darajasi yuksalib mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda.

Pandemiyadan keyingi murakkab davrda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, hududlarda "o'sish nuqtalari"ni aniqlash, mavjud muammolarni hal etish, aholi bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb etish alohida e'tibor qaratildi. Ushbu islohotlarning barchasi hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush darajasini oshirish uchun yo'naltirildi.

Jumladan, Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati statistik ma'lumotlarda o'z ifodasini topadi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni aks ettirish ishonchli va tezkor statistik ma'lumotlarni shakllantirishni taqozo etadi. Buning uchun iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni statistik baholash usullarini takomillashtirish lozim bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tarmoq va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid bir nechta qonun, farmon va qarorlar qabul qilinib, ularning ijrosi izchil amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida [1] yettita ustuvor yo'nalish belgilab berilgan bo'lib, shulardan biri milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-son qarori [4] bilan hududlarni barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy, mineral-xom ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, shuningdek, boshqa qiyosiy ustunliklarini baholash bo'yicha yagona tizim joriy etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qaroriga [5] muvofiq, 2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning Milliy strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur qarorda statistika ma'lumotlari sifatini yanada yaxshilash, statistika ko'rsatkichlarining to'laqonli ma'lumot bazalarini yaratish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sohalarda statistikaning zamonaviy usullarini joriy etish nazarda tutilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning ilmiy-nazariy asosi sifatida iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha izlanishlari, ularning yozma va og'zaki fikr mulohazalarini tahlil qilish, iqtisodiy jarayonlarni kuzatish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida iqtisodiy-statistik, mantiqiy, ilmiy abstraksiyalash, deduksiya va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan korxonalar va tashkilotlarning statistik hisobotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar kuzatuvlari asosida ishlab chiqariladi. Xorazm viloyatining 2022-yil yakunlari bo'yicha yalpi hududiy mahsuloti 31,7 trln. so'm, o'sish sur'ati 5,7%, aholi jon boshiga 16,5 mln so'mni tashkil qilgan. Respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,6 foizni tashkil qilgan [13].


YAHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 46,0 foizni tashkil qildi va 2021-yilga (46,1 foiz) nisbatan 0,1 punktga kamaygan, sanoatning ulushi 14,4 foizni tashkil qilib, 2021-yilga (13,0 foiz) nisbatan 1,4 punktga ko'pdir. Xizmatlar sohasi ulushi 32,7 foizni tashkil qildi va o'tgan yilga (33,8 foiz) nisbatan 1,1 punktga kamaygan. Ushbu sohalarning respublikadagi ulushiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining 6,7 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi 0,3 ofizga oshganligi hamda sanoat sohasining ulushi 3,3 foizni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,3 foizga oshganligini ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining 2022-yil asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari solishtirma jadvali	2022-yil					
	O'zbekiston Respublikasi		Xorazm viloyati		Respublikada Xorazm viloyatining ulushi, %	
	mlrd.so'm	2021-yilga nisbatan, %	mlrd.so'm	2021-yilga nisbatan, %	2021-yil	2022-yil
YAIM (YAHM)	888 341,7	105,7	31 963,1	105,7	3,6	3,6
Sanoat mahsulotlari	551050,9	105,2	18325,8	115,1	3,0	3,3
Iste'mol tovarlari	197892,7	119,4	11466,1	125,5	5,6	5,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	364522,8	103,6	24610,4	103,4	6,5	6,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	266021,7	99,5	8806,6	94,5	3,5	3,3
Qurilish ishlari	130767,1	106,6	4891,7	102,1	4,0	3,7
Chakana savdo aylanmasi	319288,2	112,3	13414,8	112,6	4,3	4,2
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari	357554,5	115,9	10303,2	114,6	3,0	2,9


Eksport, mln.doll. AQSH	19309,1	115,9	245,2	106,0	1,4	1,3
Import, mln.doll. AQSH	30699,3	120,4	540,3	188,9	1,1	1,8

Yuqoridagilardan shuni ko'rish mumkinki, viloyatning iqtisodiyoti drayveri qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi o'tgan yilga nisbatan rivojlanishi oshishi natijasida viloyatning YAHMdagi ulushi va respublikadagi ulushilari ortganini hamda ko'rish mumkin (1-jadval).



1-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibi (jamiga nisbatan foizda).

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibi 1-rasmga shuni ko'ramizki, so'ngi olti yilda Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasining yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi kamayish tendensiyasini, sanoat ishlab chiqarishning o'sish tendensiyasini ko'rish mumkin.




2-rasm. 2016-2022-yillar davomida Xoram viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va sanoat mahsulotlari fizik hajm indeksi.

Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilar ekanmiz, mustaqillik yillarida viloyatda barcha sohalarda ijobiy ishlar amalga oshirilayotganining guvohi bo'lamiz. Jumladan mamlakatimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlari ketayotgan bir paytda viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yildan-yilga oshib, sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lib bormoqda. 2-rasm.


Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgartirishlar bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, canoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmida yuqori ko'rsatkichlar Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish (38,4%), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (21,5%), To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (20,6%) xissasiga to'g'ri kelmoqda.

Viloyatda avvalo bozor islohatlari va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning puxta o'ylangan yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadli dasturlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan izchil, tizimli va qat'iy harakatlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sib borishiga zamin yaratmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek viloyat iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Viloyatda yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti 2016-2022-yillarda ishlab chiqarishni 3-rasmda ko'rishimiz mumkin.




3-rasm. 2016-2022-yillarda viloyatda qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarilishi.



4-rasm. 2016-2022-yillarda bozor xizmatlari hajmi va o'sish sur'ati.


Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholovchi keyingi asosiy ko'rsatkich bo'lib, bu viloyatda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishidir. Yuqoridagi tahlillardan bizga yaxshi ma'lumki, viloyatda xizmat ko'rsatish sohasi yillar davomida mutassil o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan. Jumladan, 2022-yilda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 10479,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2021-yilga nisbatan 115,1 foizni tashkil qilgan, 2016-yilga nisbatan esa 2,2-martaga oshgan.

Viloyatning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida eng muhim va viloyat iqtisodiyotining keyingi istiqbolini belgilab beradigan soha bu - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdir.



5-rasm. Xorazm viloyatida 2016-2022-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foizda).

Ammo viloyat yalpi hududiy mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2016-yildan buyon 74,2 foizdan 71,6 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 47,7 foizdan 16,1 foizga kamaygan. 5-rasm. Bunga asosiy sabab qilib, yirik sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar UzAvtomotors Xorazm filiali hamda Xorazm Shakar mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi faoliyati bilan izohlash mumkin.



6-rasm. Xorazm viloyatida 2016-2022-yillarda yangidan tashkil qilingan va tugatilgan kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni.

Xorazm viloyatida 2016-2022-yillarda yangidan tashkil qilingan va tugatilgan kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni to'g'risidagi 6-rasmga qarasak, yangi tashkil qilingan korxonalar soni 2022-yilda 2016-yilga nisbatan deyarli 3,5 barobar oshganligini ko'rish mumkin. Ammo tugatilganlarning jami yangi tashkil etilganlardagi ulushi 20 foiz atrofida bo'lishi, bu sohada ishlarni yanada to'g'ri tashkil qilish kerakligini dalolat beradi. Viloyat hokimligi va mahalliy boshqaruv organlarining birgalikdagi sa'y-harakati yordamida kichik biznesni rivojlantirish sharoitini yaxshilashda sezilarli natijalarga erishilganligini ko'rish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, viloyatda amalga oshirilayotgan islohot natijalari tezkor, aniq va haqqoniy statistik raqamlarda o'z ifodasini topadi. Statistik raqamlarning haqqoniy va shaffof bo'lishi viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni manzilli ishlab chiqilishiga xizmat qiladi. Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiyotini rivojlanish tendensiyasini uchun ishonchli va keng qamrovli statistik ma'lumotlarga ehtiyoj katta.

Shundan kelib chiqib, viloyatda amalga oshirilayotgan islohot natijalarini statistik hisobini takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- milliy qishloq xo'jaligi statistikasi tizimini ishonchli va keng qamrovli bo'lishini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi kuzatuvlarining tashkiliy va metodologik asoslarini yanada takomillashtirish;
- sanoat kooperatsiyalari bilan faoliyat yuritayotgan korxonalar kuzatuvlarini to'liq qamrab olish;
- oxirgi ikki yil davomida iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalar, uy xўжалиklarida фотоэлектрстанциялар, қуёш панелларини ўрнатилганлигини инобатга олиб, замонавий услубиятларни қўллаб, электроэнергия ишлаб чиқариш ҳисобини олиш;
- iqtisodiyotda kuzatilayotgan tendensiyalarni doimiy tahlil qilib borish;
- iqtisodiyotning tarkibiy holatini baholash, xalqaro tajribalarda foydalaniladigan statistik ma'lumotlar bilan taqqoslash imkoniyatini yaratish, tanlanma kuzatuvlarni amalga oshirish uchun statistik ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadida aholini va qishloq xo'jaligini yalpi ro'yxatga olishni o'tkazish;
- sohalar statistikasi ko'rsatkichlarining sifati, ishonchliligi va shaffofligini yanada oshirish maqsadida ma'lumotlarni toza sof choraklar bo'yicha hisoblash usulini joriy qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi // Xalq so'zi, 20.12.2022-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son farmoni // Xalq so'zi, 24.10.2019-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-son qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qarori // Xalq so'zi, 04.08.2020-yil.
6. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni. 2021-yil 11-avgust // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2021-yil, №8. <https://lex.uz>
7. S.S. G'ulomov Makroiqtisodiy statistika. Darslik. Akademik S.G'ulomov umumiy tahriri ostida.-Toshkent, "DITAF" nashriyoti, 2001-y. 271-275 b..

8. B.K. G'oyibnazarov Milliy hisoblar tizimi-makroiqtisodiy tahlil asosi. Monografiya.- Toshkent, 2001-y. 174-189-b.
9. B.K. G'oyibnazarov. O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash – turmush farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi. – 2018. – B. 72- 78.
10. Lyuis K. Metodi prognozirovaniya ekonomicheskix pokazateley. –M.: Finansi i statistika, 2001.
11. B. Berkinov, M.A. Aynaqulov Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi. Jizzax.: JDU, 2004-y. 187-192 6.
12. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz>
14. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti: www.xorazmstat.uz